

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA 5–6 YOSHLI BOLALARNING  
BO'SH VAQTINI TASHKIL ETISHDA OILA VA MTT HAMKORLIGINI  
USLUBIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI BOSHQARISH**

**Muminova Nodira Anvarovna**

*Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti,*

*Yangihayot tumani 51-DMTT direktori*

**Annotatsiya:** Maqolada 5–6 yoshli bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan uslubiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Ushbu tizimning boshqaruv mexanizmi, oila va MTT o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi, faoliyatni rejalashtirish hamda pedagogik hamkorlik modellari tahlil qilindi. Taklif etilgan yondashuvlar MTtlarda bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga, tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga va ijtimoiy-madaniy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, oila va MTT hamkorligi, 5–6 yoshli bolalar, bo'sh vaqt faoliyati, uslubiy qo'llab-quvvatlash, boshqaruv mexanizmi.

**Аннотация:** В статье рассмотрены вопросы совершенствования методической системы поддержки сотрудничества между семьёй и дошкольной образовательной организацией (ДОО) с целью эффективной организации свободного времени детей 5–6 лет. Проанализированы управленческий механизм данной системы, взаимный обмен информацией между семьёй и ДОО, планирование деятельности и модели педагогического сотрудничества. Предложенные подходы способствуют эффективной организации свободного времени детей в ДОО, развитию базовых компетенций и повышению их социально-культурной активности.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, сотрудничество семьи и ДОО, дети 5–6 лет, организация свободного времени, методическая поддержка, управленческий механизм.

**Abstract:** The article addresses the improvement of a methodological support system for enhancing cooperation between the family and the preschool educational institution (PEI) aimed at effectively organizing the free time of 5–6-year-old children. The study analyzes the management mechanism of this system, mutual information exchange between the family and PEI, activity planning, and pedagogical cooperation models. The proposed approaches contribute to the efficient organization of children's free time in PEIs, the development of foundational competencies, and the enhancement of their socio-cultural activity.

**Keywords:** *preschool education, family–PEI cooperation, 5–6-year-old children, free time activities, methodological support, management mechanism.*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabi ortib bormoqda. Ayniqsa, 5–6 yoshli bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning individual qobiliyatlari, ijodiy faolligi va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Bolaning bo'sh vaqti faqatgina vaqtni o'tkazish emas, balki uning shaxsiy rivojiga xizmat qiluvchi tarbiya va ta'lim jarayonining uzviy qismi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik mazkur jarayonning asosiy tashkiliy-pedagogik poydevorini tashkil etadi. Chunki bola tarbiyasi, rivojlanishi va faoliyati oilada boshlanib, ta'lim muassasasida davom ettiriladi. MTTda shakllantirilayotgan ko'nikmalar oilada mustahkamlansa, bolaning rivojlanish dinamikasi sezilarli ravishda oshadi. Shu nuqtai nazardan, oila va MTT hamkorligini tizimli yo'lga qo'yish, uni ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Biroq amalda mazkur hamkorlikni tashkil etishda qator muammo va cheklovlar kuzatiladi. Ular orasida axborot almashinuvining tizimli emasligi, ota-onalarning pedagogik bilim va ko'nikmalarining yetarli darajada emasligi, bo'sh vaqtni tashkil etishda yagona uslubiy amaliy mexanizmning mavjud emasligi, MTT rahbarlari va pedagoglarining hamkorlikni boshqarishga oid kompetensiyalaridagi kamchiliklar alohida o'rin tutadi. Bu esa bolalarning bo'sh vaqt faoliyatlarini rejalashtirish va amalga oshirishda muvofiqlashtirilgan, maqsadli vazifalarga qaratilgan ishlarning yetarli darajada samarali emasligiga olib keladi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda oila–MTT hamkorligini rivojlantirish masalasi alohida tarzda o'rganilgan bo'lsa-da, 5–6 yoshli bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etishda uslubiy qo'llab-quvvatlash tizimini boshqarishga oid kompleks yondashuvlar hanzugacha yetarlicha mustahkamlangan emas. Bunday sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning bo'sh vaqti faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi, oila va MTT o'rtasidagi hamkorlikni muntazam, tizimli va boshqaruv mexanizmlari bilan ta'minlaydigan uslubiy modelni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotda nazariy-tahliliy metodlar maktabgacha ta'lim tizimida 5–6 yoshli bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etishda oila va MTT hamkorligini ta'minlovchi uslubiy qo'llab-quvvatlash tizimining nazariy asoslarini aniqlash hamda mavjud ilmiy yondashuvlarning mohiyatini ochib berish maqsadida qo'llanildi. Nazariy tahlil asosida

pedagogik, psixologik, ijtimoiy va menejment sohalaridagi zamonaviy ilmiy manbalar, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar hamda maktabgacha ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlar o’rganildi.

Birinchi navbatda, bolaning bo’sh vaqt faoliyatiga doir nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, erkin faoliyat, o’yin metodlari, kompetensiyaga yo’naltirilgan ta’lim va ijodiy rivojlanish nazariyalari bilan bog’liq ilmiy fikrlar tizimlashtirildi. Bu orqali 5–6 yoshli bolalarda bo’sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etishga ta’sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar aniqlandi.

Shu bilan birga, oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o’rtasidagi hamkorlik masalasiga oid nazariy manbalar qiyosiy tahlil qilindi. Oila–ta’lim muassasasi o’zaro munosabatlarining klassik modellari, zamonaviy interaktiv hamkorlik platformalari va ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar o’rganildi. Ushbu tahlil oilaviy tarbiyaning MTTdagi ta’lim-tarbiya jarayoni bilan uyg’unlashuv darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Nazariy-tahliliy tadqiqot doirasida xorijiy mamlakatlar tajribasi — xususan, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Rossiya kabi davlatlarda bolalarning bo’sh vaqtini tashkil etish, oila bilan hamkorlik strategiyalari, uslubiy qo’llab-quvvatlash texnologiyalari tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil natijasida O’zbekiston maktabgacha ta’lim tizimiga tatbiq etish mumkin bo’lgan ilg’or g’oyalar, samarali boshqaruv yechimlari va uslubiy modellar saralandi.

Ushbu nazariy tahlillar asosida tadqiqotning ilmiy gipotezasi shakllantirildi: ya’ni oila–MTT hamkorligini uslubiy jihatdan qo’llab-quvvatlashning yaxlit tizimi mavjud bo’lsa va u maqsadli ravishda boshqarilsa, 5–6 yoshli bolalarning bo’sh vaqti mazmunli, samarali va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo’ladi.

**Xorijiy tajriba tahlili.** Maktabgacha ta’lim tizimida oila va ta’lim muassasasi hamkorligini yo’lga qo’yish, bolalarning bo’sh vaqt faoliyatini samarali tashkil etish va ularni pedagogik jihatdan qo’llab-quvvatlash sohasida bir qator rivojlangan mamlakatlar e’tirof etilgan ilg’or amaliyotga ega. Xususan, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, AQSH va Rossiya tajribalari bolalarning bo’sh vaqtini rivojlantiruvchi faoliyat sifatida tashkil etishning turli modellarini namoyon etadi. Ushbu tajribalar qiyosiy o’rganildi va ularning umumiy qonuniyatlari hamda O’zbekiston sharoitiga mos yo’nalishlari tahlil qilindi.

**Finlyandiya tajribasi.** Finlyandiya maktabgacha ta’lim tizimida oila—bog’cha hamkorligi “birgalikda rivojlanish hamjamiyati” g’oyasiga tayanadi. Bolalarning bo’sh vaqti pedagogik faoliyatning davomi sifatida qaraladi. Mazkur mamlakatda ota-onalar har oy, ayrim hollarda haftalik ravishda bog’cha pedagoglari bilan uchrashib, bolaning

qiziqishlari va individual rivojlanish yo'nalishlarini muhokama qiladilar. "Oila—bog'cha kundaligi" orqali bolaning kunlik faoliyatlari haqida axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Bo'sh vaqt faoliyatida tabiat qo'ynidagi o'yinlar, STEM elementlari va ijodiy mashg'ulotlar alohida ahamiyatga ega.

**Yaponiya tajribasi.** Yaponiyada maktabgacha ta'lim "kooperativ pedagogika" tamoyili asosida tashkil etilib, bolalarning bo'sh vaqti tartibli, intizomli va madaniy faoliyat bilan boyitilgan. Ota-onalar faol ishtirokchilar sifatida ko'rinadi: oilaviy klublar, sport faoliyatlari va madaniy tadbirlarda ishtirok etish ularning majburiy vazifalari qatoriga kiradi. MTTlarda ota-onalarga mo'ljallangan maxsus "bolaning rivojlanish kartasi" yuritiladi. Bu nafaqat axborot almashinuvini, balki oilalarning pedagogik xabardorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Janubiy Koreya tajribasi.** Janubiy Koreyada oila va MTT hamkorligi raqamli platformalar asosida tashkil qilingan. Elektron ta'lim kundaligi, mobil ilovalar, onlayn seminarlar orqali ota-onalar bolaning bo'sh vaqt faoliyatlari va kunlik ko'nikmalarini kuzatib boradi. Bo'sh vaqt faoliyatlarining asosini texnologik va innovatsion o'yinlar, robototexnika, konstruktorlar, tajriba-amaliy mashg'ulotlar tashkil qiladi. Oila uchun "pedagogik veb-kurslar" ishlab chiqilgan.

**Singapur tajribasi.** Singapurda bolalarni erta yoshdan ijtimoiylashtirish va faollikka jalb etishga alohida e'tibor beriladi. MTTlarda "Oilaviy sheriklik markazlari" faoliyat yuritadi. Ularda psixologlar, pedagog-metodistlar va ota-onalar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar oilalarga bolaning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, uning qobiliyatlarini aniqlash va rag'batlantirish bo'yicha doimiy maslahatlar berib boradi. Bo'sh vaqt faoliyatlari milliy qadriyatlar va global kompetensiyalarni uyg'unlashtirishga qaratilgan.

**AQSH tajribasi.** AQSHda oila—bog'cha hamkorligi "Family Engagement Framework" asosida amalga oshiriladi. Ota-onalar bog'chaning barcha faoliyatlarida hamkor sifatida qatnashadi. Bo'sh vaqt faoliyatida STEM, STEAM, teatr, rassomchilik va sport yoshga mos ravishda yo'lga qo'yiladi. Ota-onalar uchun maxsus "Parent Academy" kurslari tashkil qilinib, bolalar bilan uy sharoitida bajariladigan rivojlantiruvchi faoliyatlar o'rgatiladi.

**Rossiya tajribasi.** Rossiya maktabgacha ta'lim amaliyotida "bog'cha—oila—jamoatchilik" hamkorlik modeli keng qo'llaniladi. MTTlarda oilaviy master-klasslar, ijodiy studiyalar, sport bayramlari va "Oila klubi" faoliyatlari tashkil etiladi. "FGOS DO" talablari asosida bolalarning bo'sh vaqt faoliyati ijtimoiy, jismoniy va kognitiv rivojlanish ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda rejalashtiriladi. Oila uchun metodik tavsiyalar, bukletlar va video-darslar ishlab chiqilgan.

Xorijiy amaliyot tahlili shundan dalolat beradiki:

oila va MTT integratsiyasi bolaning bo'sh vaqt faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi omildir;

samarali hamkorlik uchun axborot almashinuvi, raqamli platformalar, interaktiv mashg‘ulotlar va oilalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash strategiyalari muhim; faoliyatning o‘yin, ijodiy, madaniy va texnologik yo‘nalishlari ko‘proq qo‘llaniladi; ota-onalarni tayyorlash, ularni pedagogik sherik sifatida jalb qilish eng yuqori natija beradi.

**O‘zbekiston sharoitiga mos takliflar.** Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlilidan kelib chiqqan holda, 5–6 yoshli bolalarning bo‘sh vaqtini tashkil etishda oila va MTT hamkorligini O‘zbekiston sharoitida samarali amalga oshirish uchun quyidagi takliflar ilmiy asosda ishlab chiqildi:

1. Axborot va kommunikatsiya platformalarini joriy etish. Ota-onalar va MTT o‘rtasida uzluksiz axborot almashinuvini ta‘minlash uchun elektron kundaliklar, mobil ilovalar va messenjer guruhlarini tashkil etish. Bolaning kunlik faoliyati, qiziqishlari va rivojlanish yo‘nalishlari to‘g‘risida oilaga muntazam ma‘lumot berib borish.

2. Oilaviy pedagogik faoliyatlarni tartibga solish. “Oilaviy kunlar”, “Ota-ona va bola” master-klasslari, interaktiv o‘yinlar va ijodiy tadbirlar orqali oilaviy ishtirokni kuchaytirish. Ota-onalar uchun bolaning rivojlanishi va bo‘sh vaqt faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qisqa kurslar va video-yo‘riqnomalar ishlab chiqish.

3. Mazmunli bo‘sh vaqt faoliyatlarini joriy etish. Ijodiy (rasm, musiqa, qo‘l mehnati), STEM/STEAM elementli tajriba-amaliy mashg‘ulotlar, sport va harakatli o‘yinlar, milliy qadriyatlarga asoslangan madaniy dasturlar. Faoliyatlarni yoshga mos va bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirish, bolaning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish.

4. Uslubiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish. MTTda pedagoglar va ota-onalar uchun metodik materiallar banki, uslubiy tavsiyalar va elektron resurslar yaratish. Bo‘sh vaqt faoliyatida qo‘llaniladigan innovatsion va interaktiv texnologiyalarni joriy etish.

5. Monitoring va baholash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish. Bo‘sh vaqt faoliyatining samaradorligini baholash uchun kriteriyalar va indikatorlar ishlab chiqish. Ota-onalar va pedagoglar fikrini muntazam olib, hamkorlik jarayonini takomillashtirish.

6. Muhiti va qonuniy asoslarni rivojlantirish. MTTda oila–ta‘lim hamkorligini qonuniy va tashkiliy jihatdan ta‘minlovchi ichki qoidalar va reglamentlarni ishlab chiqish. Davlat va mahalliy hokimiyatlar darajasida hamkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar va grantlar tatbiq etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston sharoitida xorijiy tajribalardan ilmiy asosda qo‘llangan ushbu yo‘nalishlar bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, oila va MTT hamkorligini samarali boshqarish, shu bilan birga bolaning ijodiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu model tadqiqot natijalari asosida qiyosiy va amaliyotga moslashtirilgan. Oila va MTT hamkorligini takomillashtirish

bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llab-quvvatlash tizimi va boshqaruv mexanizmi MTTlarda samarali amalga oshirilsa, bolalarning ijtimoiy-ma‘naviy rivoji, ijodiy faolligi va mustaqilligi sezilarli darajada oshadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Early Childhood Development and Education: Guidelines and Best Practices. – Geneva: WHO Press, 2022. – 112 p.
2. Heinonen, O., Hämäläinen, S. Family Engagement in Early Childhood Education: Finnish Experience // Journal of Early Childhood Research. – 2021. – Vol. 19, №3. – P. 205–221.
3. Yaponiya Ta’lim vazirligi. Guidelines for Preschool Education and Family Collaboration. – Tokyo: Government Press, 2020. – 78 b.
4. Lee, S., Kim, H., Park, J. Parent–Child Collaboration in Preschool Education: South Korea Experience // International Journal of Early Childhood. – 2019. – Vol. 51, №2. – P. 123–138.
5. Tan, W., Chua, Y. Family–School Partnership in Singapore Early Childhood Programs // Early Childhood Education Journal. – 2018. – Vol. 46, №5. – P. 521–534.
6. Henderson, A. T., Mapp, K. L. A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement. – Austin, TX: National Center for Family & Community Connections, 2017. – 98 p.
7. Volkova, I. V., Sidorova, T. N. Sovremennyye podkhody k organizatsii svobodnogo vremeni detey doshkolnogo vozrasta // Vestnik pedagogicheskix issledovaniy. – 2021. – №12(2). – S. 45–59.
8. Abdullayeva, N. M. Metodicheskiye osnovy vzaimodeystviya semi i doshkolnogo obrazovatel’nogo uchrejdeniya. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti, 2020. – 104 b.
9. OECD. Early Learning and Child Well-being: International Perspectives. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 132 p.
10. Sinyavskaya, L. P. Parent–Preschool Institution Interaction: Methodological Aspects // Pedagogical Science and Practice. – 2018. – Vol. 14, №4. – P. 67–82.
11. National Association for the Education of Young Children (NAEYC). Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs. – Washington, DC: NAEYC, 2021. – 88 p.

12. Valiyeva F.R. To Develop Professional Training of Professional Education Specialists by Ensuring //International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life Available Online: [www.ijtsrd.com](http://www.ijtsrd.com) e-ISSN: 2456 – 6470 2021/

13. Valiyeva F.R., Sharipova G.N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022